

## O'ZBEKISTONDA AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISH VA MODDIY TEXNIK HOLATINI YAXSHILASH SOHASIDAGI AMALIY HARAKATLAR VA ULARNING NATIJALARI.

Xoliddinov Nuriddin Oromiddin o‘g‘li

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti tyutori

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki masala iqtisodiyotni tezroq barqarorlashtirish hisoblanadi. Shu jihatdan qishloq xo‘jaligini rivojlanterish va samaradorligini oshirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jalida bozorlarni to‘g‘ri tashkil qilish va agrar siyosatni to‘g‘ri olib bormasdan iqtisodiy samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. 1920-1991 yillar mamlakat agrar siyosati asosan paxta yakkahokimligi siyosatiga qaratilgan, yerga egalik davlatning qo‘lida, ishlab chiqarish va mulk munosabatlari umumiylitka asoslangan. Agrar siyosat davlat tomonidan, asosan sanoatning manfaatlariga asoslangan holda amalga oshirilgan. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi davlat, jamoaviy va qisman shaxsiy mulkka asoslangan holda amalga oshirilgan. Bu davrda qishloq xo‘jalida qator ilmiy tajribalar amalga oshirilgan, ammo ishlab chiqarish va fan o‘rtasida uзilish paydo bo‘lgan, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga qo‘llash haddan tashqari qiyinlashib ketgan, ya‘ni olib borilgan agrar siyosat ilmiy asoslarga emas, balki ayrim manfaatlarga xizmat qilgan. Shularni hisobga olgan holda Mustaqillikdan so‘ng ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi o‘zgarishlar keng miqyosdagi islohotlarni amalga oshirish natijasi bo‘lib, jamiyat hayotini tubdan o‘zgartirib, muhim yangilanishlar jarayoniga asos soldi.

**Kalit so‘zlar:** Agrotexnika, islohot, klaster, infratuzilma, YaIM, strategiya, qishloq xo‘jaligi, innovatsiya, mahsulot eksporti.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekistonda asosiy iqtisodiy tarmoq hisoblanadi. U YaIMning qariyb 27 foizini egallaydi, mamlakatdagi jami aholining 30 foizdan ortig‘ini ish bilan ta’minlaydi, qashshoqlikni kamaytirishga hissa qo‘shadi. Bir necha o‘n yillar mobaynida respublika iqtisodiyoti markazdan boshqariladigan yagona xalq xo‘jaligi kompleksining tarkibiy qismi edi. Markaz qabul qiladigan ko‘pgina qarorlar O‘zbekistonning manfaatlaridan yiroq edi. Xullas, chor imperiyasi davridagidek, respublika arzon xom ashyo va strategik mineral resurslar bazasi edi. U tayyor mahsulot sotiladigan qulay bozorga aylanib qolgandi. Respublikaning ulkan tabiiy boyliklaridan foydalaniлgani holda daromadlar uning hududidan ancha olisda qolib ketardi<sup>6</sup>. Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishlar bo‘yicha ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar, avvalo, quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilmog‘i lozim. Birinchidan, qishloq xo‘jalik xom ashysosi va mineral resurslarni chuqurroq qayta ishlash, ularni tayyor mahsulot darajasiga yetkazish, qishloq xo‘jalik resurslarini chuqur qayta ishlashga alohida ahamiyat berilishi kerak. Yangi qayta ishlovchi quvvatlarni yaratish, keng miqyoslarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, trikotaj, to‘qimachilik, tikuvchilik

<sup>6</sup> O‘zbekistonning yangi tarixi. III-kitob. (O‘zbekiston tarixi). -T., «Sharq», 2000.

sanoatini, sermehnat tarmoqlarni rivojlantirish, tayyor buyumlarning xillarini ko‘paytirish, ularni tashib keltirishni kamaytirish va eksportni oshirish imkonini beradi.

Qishloq - milliy daromadning eng muhim manbai. Ammo eng muhim, qishloq - iqtisodiy va ijtimoiy turmushdagi, natijada, siyosatda ham shunday bir bo‘g‘inki, u orqali butun respublika farovonlik va to‘kinlikka erishadi. Hisob-kitoblarning ko‘rsatishicha, qishloqda 6,5 million mehnatga layoqatlari aholi ish bilan band. Tabiiyki, qishloq xo‘jaligida o‘zlashtirilgan yerlarimiz shuncha odamni mehnat bilan ta‘minlay olmaydi. Shu sababli, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning yuqori samarali industrial uslublari, ilg‘or mexanizasiya va agroximiya usullari nihoyatda sekinlik bilan joriy etilmoqda. Buning natijasida unumdarlik darajasi ham, mahsuldarlik darajasi ham past bo‘lmoqda. Shuning uchun ham hozirda qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan ortiqcha mehnat qiluvchilarni sanoatga, xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb qilish agrar siyosatimizning g‘oyat muhim yo‘nalishidir. Qishloq joylariga, lo‘nda qilib aytganda, sanoatni olib kelish zarur. Zamonaviy texnologiyaga ega bo‘lgan kichik korxonalarini ochish hisobiga yangi ish joylarini yaratish ustuvor vazifadir<sup>7</sup>. Bular qishloq xo‘jalik xom ashvosini qayta ishlaydigan korxonalargina emas, balki sermehnat, shu jumladan kasanachilikka asoslangan ishlab chiqarishlar, xalq hunarmandchiliklari ham bo‘lishi kerak. Qishloqda buning uchun mutlaqo yangi bo‘lgan tarmoqlar - ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani, kommunikasiyalar tarmog‘ini, zamonaviy maishiy va boshqa xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini tashkil qilish lozim bo‘ladi. Amalda bu soha hozir rivojlanmagan. Respublikamizda xalq xo‘jaligida band bo‘lganlarning atigi 8 foizi maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida ishlaydi. Xizmat ko‘rsatish sohasi tegishlicha tashkil qilingan taqdirda esa, qishloqdagi barcha xohlovchilarni ish bilan ta‘minlay oladi. Natijada, qishloqning qiyofasini, qishloq turmush madaniyatini, odamlarimizning hayot darajasini tubdan o‘zgartirib yuboradi.

Sug‘orma dehqonchilik sanoatida asosiy boyligimiz bo‘lmish yerga munosabatni o‘zgartirish biz uchun ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Yerlarning meliorativ holatiga doimo katta e’tibor berilmog‘i lozim. Agar biz shunday qilmasak, istiqbolimizdan mahrum bo‘lamiz. Aytib o‘tilgan ustuvor vazifalarni ro‘yobga chiqarish biz uchun prinsipial yangi bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarni joriy etishga, ma’rifatli taraqqiyot yo‘liga o‘tib olishga imkon beradi. Ayni paytda iqtisodiy mustaqillikka erishishdek nihoyatda muhim vazifa ham shu muammolarni yechish bilan bog‘liqdir<sup>8</sup>.

Qishloq xo‘jaligida yalpi mahsulotning hajmi o‘tgan yilning shu davridagi darajadan oshib ketdi. Xalq iste’mol mollari ishlab chiqarish 12 foizdan ziyodroq ko‘paydi. Un, makaron mahsulotlari, yorma, mol yog‘i, ip-gazlama va jun gazlamalar, boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish oshdi. Paxta tolasini o‘zimizda qayta ishlash ham ancha oshdi. O‘zimizda qayta ishlanayotgan tola 10 foizdan 16,5 foizga. Respublikamizning o‘zida qayta ishlangan meva, sabzavot, boshqa qishloq xo‘jalik xom ashvosining hajmi keskin ko‘paydi. O‘zimizda ishlab chiqarilayotgan va aholi iste’mol qilayotgan tovarlar ulushi 60 foizdan 80 foizgacha oshdi.

<sup>7</sup> Tursunov S.N. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirish yo‘lida urinishlar (1946-1965 yillar): niyatlar va natijalar. -T, «TPI», 1994

<sup>8</sup> Rahimov B.S. O‘zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yillar). Tar.fan.nom.diss. – Toshkent: O‘zMU, 2008

Mustaqillik uchun kurashning boshidanoq respublikada paxta yakkahokimligini bartaraf etish va ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish yo‘lidan borildi. Bundan maqsad O‘zbekistonning eng muhim oziq-ovqat resurslari bilan o‘zini o‘zi ta’minlashiga erishish edi. Natijada donli ekinlar maydoni 300 ming gektarga kengaytirildi. Gollandcha texnologiyadan foydalanib, kartoshka ekiladigan maydonlar ko‘paytirildi. Qand lavlagi maydonlarini kengaytirish va bir qancha zavodlar qurish yaqin yillar ichida 20 ming tonna qand-shakar ishlab chiqarish, 1997 yilga borib esa uning hajmini 125 ming tonnaga yetkazish imkoniyatini beradi. Eng muhimi esa bo‘sab qolgan yerlar tomorqa uchastkalarini kengaytirish uchun berildi. Fermer xo‘jaliklarini tashkil qilish esa agrar sektorda yirik iqtisodiy islohotlarni boshlab berdi. Hozirgi vaqtida 53 ming gektardan ko‘proq maydonda 5300 mustaqil dehqon xo‘jaliklari ishlab turibdi. Bugungi kunga qadar qishloq xo‘jaligida 20 million gektardan ortiq yer, jumladan, 3,2 million gektar sug‘oriladigan ekin maydonlarida aholi ehtiyojlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirilmoqda.

2017 yilda klaster tizimining paydo bo‘lishi tufayli qishloq xo‘jaligi yanada rivojlanishi boshladi. Bu tizim endigina yo‘lga qo‘yilmoqda, zanjirning ayrim bo‘g‘inlarida muammolar mavjud, ammo uni yanada takomillashtirish O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi.

2019 yilda Qishloq xo‘jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur Strategiya 2030 yilgacha 1,0 million gektardan ortiq qishloq xo‘jaligi yerlarini o‘zlashtirish, 535,0 ming gektardan ortiq lalmi, yaylov va boshqa yerlardan samarali foydalanishni ta’minlash; tarmoqda band bo‘lgan har bir kishiga o‘rtacha mehnat unumdarligining 1,7 barobar yoki yiliga 6,5 ming dollargacha o‘sishini ta’minlash; qayta ishlangan tayyor mahsulotlar hajmini 30 foizgacha oshirish; mahsulot eksportini 20 milliard dollargacha oshirishni nazarda tutadi.

2017–2021 yillarda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti 6,8 foizga o‘sdi. Ushbu davrda ishlab chiqarishning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati taxminan 1,7 foizni tashkil etdi. 2017-2021 yillarda qishloq xo‘jaligining har bir band kishiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymati 7,0 foizga oshib, 2019 yildagi o‘rtacha jahon ko‘rsatkichidan 60 foizga oshdi. 2020-2021 yillarda kvotalar va narxlarni nazorat qilishning bekor qilinishi ekinlarni diversifikatsiya qilish, boshqa ekinlar, meva va sabzavotlar yetishtirishga bosqichma-bosqich o‘tishga yordam bermoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti respublika tashqi daromadining 10 foizdan ortig‘ini tashkil qilmoqda. O‘zbekistonda 2019 yil 15 oktyabrdan boshlab un narxini davlat tomonidan tartibga solish to‘xtatildi. 2020 yil hosilidan boshlab davlatning g‘allaga buyurtmasi 25 foizga qisqartirildi, 2021 yil hosilidan esa davlat tomonidan g‘alla xarid narxlarini belgilash amaliyoti butunlay bekor qilindi. 2020 yil hosilidan paxta xomashyosining xarid narxlarini belgilash amaliyoti bekor qilindi va paxtani erkin joylashtirish huquqi berildi. Ilmiy va innovatsion ishlanmalarni joriy etish hisobiga meva-sabzavot, kartoshka, dukkakli va yog‘li o‘simliklar ishlab chiqarish hajmi yiliga 6-8 foizga, go‘sht 16 foizga, sut 13 foizga, tuxum 27 foizga, baliq yetishtirish hajmi 2 marotabaga, asal 30 foizga ortadi. Meva-sabzavotni qayta ishslash darajasi 15 foizga, go‘sht 9 foizdan 15 foizga, sut 14 foizdan 18 foizga yetkaziladi. Bunday tartibning o‘rnatalishi yer unumdarligi va

yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga, jumladan, almashlab ekishni ta'minlashga qaratilgan samarali usul va texnologiyalardan foydalanishga xizmat qilmoqda<sup>9</sup>.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida aholi zichligi bo'yicha O'zbekiston birinchi o'rinda – 1 kv.km.ga 51,4 kishi to'g'ri keladi. Har gektar sug'oriladigan yerga respublika aholisining 8 nafari to'g'ri keladi. Aholining o'sish sur'ati sug'oriladigan yerlar maydonining o'sish sur'atlaridan ancha yuqori. Shuning uchun so'nggi 30 yil ichida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yerlar maydoni, ya'ni aholining o'sishi hisobiga 0,23 gektardan 0,16 gektargacha, qariyb 25 foizga kamaydi. Osiyo taraqqiyot banki ma'lumotlariga ko'ra, agar hozirgi tendensiyalar davom etsa, keyingi 30 yil ichida sug'oriladigan maydonlar yana 20-25 foizga qisqaradi. Demak, yerdan ilmiy asoslangan holda foydalanish, unumdonligini har tomonlama oshirish va saqlash ishiga qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida qarash lozim.

O'zbekistonda yer xususiy mulkka aylanmoqda. Yer maydoniga bunday mulk huquqining kiritilishi mulkdorni, unumdonlikni oshirishga qaratilgan uzoq muddatli investitsiyalarni kiritishga undaydi. Yer egasi yerdan uzoq muddatli samarali foydalanishni rejalashtirishi mumkin. Agar davlatga yer uchastkasi kerak bo'lsa, uni xususiy sektordan bozor narxida, shartnoma asosida sotib olishi mumkin. Davlat kelishilgan narxda yer sotib olsagina, davlatga o'tishi mumkin. Yer kodeksida yer davlat mulki, u umumxalq mulki deb belgilanmagan. Ushbu tartiblar O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 iyundagi "Davlat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini kompensatsiya to'lash sharti bilan olib qo'yish tartibi to'g'risida"gi O'RQ-781-son Qonuni bilan belgilangan.

Respublika agrosanoat majmuining bugungi holatini tahlil qilganlar "egin maydonlarining 70 foizdan ortig'ini paxta va g'alla uchun ajratish mutlaq davom etmoqda. Boshqacha aytganda, majburiy davlat buyurtmasi instituti amalda saqlanib qoldi va bu soha samarasizligi va bundan keyin islohotlarni amalga oshirish mumkin emasligining asosiy sababidir" derkanlar, maqola mualliflari oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligini boshqarish va uning yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis emasga o'xshaydi. Bir misol: 2021 yilda 3148,3 ming gektar ekin maydonlarining 2070,7 ming gektari (65 foizi) texnik ekinlar – boshoqli don va paxta uchun ajratilgan. O'tgan 2020 yilda 2967,5 ming gektar ekin maydonlarining 71 foizi yoki 2096,8 gektari shu texnik ekinlarga ajratilgan edi. Birgina 2018 yilning o'zida 99 ming 371 gektar past hosildor paxta maydonlariga sabzavot, kartoshka, soya, sabzavot, yem-xashak ekinlari, uzumzorlar va boshqalar ekildi. Raqamlardan ko'rinish turibdiki, texnik ekinlar maydonlari yildan yilga kamayib bormoqda, meva-sabzavot ekinlari maydonlari mahsulotlarni diversifikatsiya qilish bilan bir vaqtida ko'paymoqda. Bu qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishda davlat siyosatini majburiy saqlashni anglatmaydi. Yana bir misol. Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ekinlarni joylashtirish davlat ahamiyatiga ega siyosat hisoblanadi. Masalan, deyarli butun Yevropani oziq-ovqat bilan ta'minlovchi Niderlandiyada ekinlarni joylashtirish manzilli dehqonchilik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Mamlakat qishloq xo'jaligining asosiy afzalliklaridan biri bilimlar,

<sup>9</sup> Mirziyoyev SH. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T., "O'zbekiston" NMIU, 2016 yil

texnologiyalarni joriy etish bo‘lib, fermerlar, sanoat kompaniyalari, ilmiy muassasalar va davlat o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqdaki, uning natijalari sohaning barqaror o‘sishini ta’minlash, resurslar samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shdi. Kelgusida bu respublika qishloq xo‘jaligi salohiyatini kengaytirishga yordam beradi va rejalashtirilganidek, O‘zbekistonni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha jahon yetakchilari bilan yaqinlashtiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. T., “O‘zbekiston” NMIU, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.T.,”O‘zbekiston” NIMU, 2018.
3. Tursunov. S.N. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirish yo‘lida urinishlar (1946-1965 yillar) niyatlar va natijalar. -T., « TPI», 1994
4. To‘xliyev . N. O‘zbekiston iqtisodiyoti. -T, «O‘qituvchi», 1991
5. O‘zbekistonning yangi tarixi. III-kitob. (O‘zbekiston tarixi). -T., «Sharq», 2000.
6. Rahimov B.S. O‘zbekistonning mustaqillik yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yillar). Tar.fan.nom.diss. – Toshkent: O‘zMU, 2008.